

## ERKIN VOHIDOV G'AZALLARIDA MAVZU OBYEKTINING XILMA-XILLIGI

**Husanova Dildora Narzulla qizi**

*O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Erkin Vohidovning g'azallaridagi mavzu obyektining xilma-xilligi xususida so'z yuritiladi. Buni yoritishda shoirning "Yoshlik devoni"dan obyekt sifatida foydalanildi.*

**Kalit so'zlar:** *Erkin Vohidov, "Yoshlik devoni", mavzu obyekt, g'azal, vazn, aruz, Alisher Navoiy, vatan, do'st, ishq.*

**Annotation:** *This article talks about the variety of subject matter in Erkin Vahidov's ghazals. To cover this, the poet's "Department of Youth" was used as an object.*

**Key words:** *Erkin Vahidov, "Department of Youth", ghazal, weight, aruz, Alisher Navoiy, homeland, friend, love.*

Har qanday dramaturg, yozuvchi yoxud shoir shaxsi o'z ijod namunalari yaratarkan, albatta, turli-tuman mavzularga murojaat qilishga harakat qiladi. Asarlarining kamalakdek tovlanib turishini, kitobxonlarning aynan shu muallifdan o'zi xohlagan mavzudagi noyob, original, ohoriy asarlarni topib o'qishini istaydi. Lekin hamma ijodkorga ham bu baxt nasib etmaydi. To'g'ri, kimdir vatan mavzusiga bag'ishlangan she'rlari bilan qalbdan joy oladi, yana kimdir bitgan ishqiy satrlar oshiqlar tilidan tushmaydi, kimdir tabiat tasvirini so'zlar orqali misralarga go'zal qilib chizishga qodir; kimdir hayotiy voqealardan jonli asar yaratadi, kimdir fantastik, kimdir tarixiy, kimdir zamonaviy yo'nalishdagi asarlari bilan kitobxonlar yodida qoladi.

O'zbek adabiyotida ulkan cho'qqiga aylana olgan shunday ijodkor borki, uning asarlari, betakror misralari, otashin she'rlari yuqoridagi ta'riflarning barchasiga to'la-to'kis mos keladi. Bu o'zbek xalqining qalbida o'chmas iz qoldirgan Erkin Vohidov siymosidir. Erkin Vohidov ajdodlari ruhini shod etib, avlodlarga o'zidan munosib va boy ijodiy meros qoldira olgan ijodkor.

Shoir ijodida "Yoshlik devoni" (1969) deb nomlangan to'plam bo'lib, u boshqa asarlardan tubdan ajralib turadi. Avvalo, bu farq vazn xususiyatida namoyon bo'ladi, ya'ni to'plam boshdan oyoq aruz vazni asosiga qurilgan. Shu asnodda to'plam aruz vazni asosida shakllanuvchi g'azal, muxammas, ruboiy, qasida, buyuk shoirlarimizning ijod namunalari bitilgan nazira va o'xshatmalardan tashkil topgan.

Shuni faxr bilan aytish mumkinki, Erkin Vohidov aruz vazniga qayta jon baxsh etdi. Bu haqida adabiyotshunos Abdulhamid Nurmonov shunday deydi: "Alisher Navoiy "turkiyda go'zal asarlar yozish mumkin emas", degan aqidaga o'zining "Xazoyin ul-maoniy", "Xamsa" singari asarlari bilan chek qo'ygan bo'lsa, Erkin Vohidov "g'azal o'z umrini o'tab bo'ldi,

hozirgi voqeligimizni bu janr orqali ifodalab bo'lmaydi", degan aqidani o'zining devoni bilan chippakka chiqargan edi"<sup>18</sup>.

"Yoshlik devoni" mumtoz adabiyotimiz gulshanida go'zal guldastaga aylandi. Qolaversa, undagi mavzu ko'lami shu qadar kengki, o'qigan sari qiziqishingiz ortib boradi. To'plamdan har qanday mavzudagi g'azallarni topishingiz mumkin. Qizig'i shundaki, mumtoz adabiyotimizdan o'rin olgan g'azallardagi asosiy mavzu yo'nalishi muhabbat, ishq majoziy, ishq ilohiy tarannum etishga bag'ishlangan edi, Erkin Vohidov g'azallari esa o'z ma'no ko'lamida ijtimoiylik kasb etgani, g'azal janri orqali hazil-mutoyibani aks ettira olgani bilan ham ahamiyatlidir.

To'plam "Debocha" bilan boshlanadi:

Istadim sayr aylamoqni men g'azal bo'stonida,  
Kulmangiz, ne bor senga deb Mir Alisher yonida<sup>19</sup>.

Shoir ilk baytniyoq go'zal lutf bilan, o'ziga xos kamtarona ohang boshlaydi. Muallif g'azal bo'stoniga kirmoqlikka niyat qildi, tabiiyki, u yerda g'azal mulking sultoni Alisher Navoiyning beqiyos mulki bor. Buni shoir biladi va g'azalxonlardan bu ahdiga kulmasligini so'rab, o'z maqsadini keyingi baytda aniq ifoda etadi:

She'riyat dunyosi keng, gulzori ko'p, bo'stoni ko'p,  
Har ko'ngil arzini aytur neki bor imkonida.

She'riyat olami judayam keng bo'lib, uning qanchadan qancha gulzorlari, chamanlar-u bo'stonlari bor. Bu olamga kirgan inson qo'ldan kelgancha, bor imkonicha o'z dilidagilarni izhor etadi. Men ham bu gulzorga o'z hissamni qo'shayin deya shoir Erkin Vohidov ham yuqoridagi misralar ila o'z devonini boshlaydi.

Devondagi mavzu obyektining xilma-xilligiga to'xtaladigan bo'lsak, asosiy qismni sevgi-muhabbat ruhidagi g'azallar tashkil etadi. Ularga shoirning "Yo'q emish orzuda ayb...", "Bandi zulf", "Dostonga yoz", "Samar bo'lgay", "Uyg'otmagil", "Rashkim", "Shirin", "Na qilsin", "Sevgini tortib bo'lurmi...", "Sevgi", "Ishq istilosi", "Dilda ishq daryochadir...", "Bir go'zalkim", "Izhorishq" kabi g'azallarini misol qilish mumkin.

Sevgi shunday navbahorki, u tikandan gul qilur,  
Toshga jon-u til bag'ishlab, zog'ni ham bulbul qilur.

"Sevgi" deb nomlangan g'azalning ushbu matla'sida shoir Alloh tomonidan chin oshiqlargagina beriluvchi, ilohiy ne'mat – sevgiga ta'rif berar ekan, uni "tikandan gul qilguvchi" deya e'zozlaydi. Yana u shunday qudratli tuyg'uki, jonsiz toshga jon, nafaqat jon, balki zabon baxsh etishga ham qodir, undan sarmast bo'lgan zog'lar hatto bulbul kabi navo qiladilar. Shoirning yuqori darajadagi metaforani qo'llash, o'xshatish, sifatlashlardan mahorat bilan foydalanishini ko'rish mumkin.

<sup>18</sup> Nurmonov A. So'z mulkiga sayr. Ziyo.uz.com. 2015.

<sup>19</sup> Vohidov E. Yoshlik devoni. Toshkent. G'afur G'ulom. 1969. Keying misollar ham shu kitobdan olindi.

Muallif g'azallarida nafaqat ishq majoziy, balki ishq ilohiy madh etgan baytlarni ham uchratish mumkin. Zero, unutmaslik kerakki, Erkin Vohidov Alisher Navoiy an'alarini o'z ijodi qa'riga singdirgan. Navoiy ijodida esa bevosita ishq ilohiy kuylash, g'azallarida bunga alohida ahamiyat berish hamisha e'tibor markazida bo'lgan. Farqi navoiy ijodida bu yorqin ko'zga tashlanadi, Erkin Vohidovda esa majoziy ishq kuchlilik qilsa ham ishq haqidagi ayrim nuqtalarda buni ko'rish mumkin.

Ey ko'ngil, o'z mayling ila bo'lding ishq domiga band,  
Izlama endi bahona, demagin u-buda ayb.

Baytda shoir ishqqa o'z mayli bilan muhtalo bo'lganligi haqida aytar ekan, tabiiyki, undan turli azob-sitamlar, jabr-u jafolar kelishini nazarda tutib, endi bunga bahona izlamaslik, buni hech kimdan ayb ko'rmaslikka chorlaydi.

Men sevarman jondan ortiq, sevganim suymas, netay?  
Ham sevib men sevmagan o'z holima qo'yimas, netay?

Erkin Vohidovning bu bayti bizga Alisher Navoiyning ushbu misralarini yodga soladi. Bu ham o'z o'rnida yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas,  
Meni istar kishining suhbatin ko'nglim pisan etmas<sup>20</sup>.

Shoir g'azallaridagi keyingi mavzu obyekt bevosita ishq bilan bog'liq bo'lgan hijron, ayriliq, jabr-u jafu, vafodorlik kabi mavzulardir.

Tun bilan yig'labdi bulbul g'uncha hajri dog'ida.

Ko'z yoshi shabnam bo'lib qolmish uning yaprog'ida.

Yuqoridagi baytda bulbul oshiq timsolida, g'uncha yor timsolida kelmoqda. Oshiq yor hajrida, ayrilig'ida tuni bilan yig'lab chiqdi, hatto shunchalik ko'z yosh to'kdiki, uning ashklari yaproqlarga shabnam bo'lib qo'ndi. Bu kabi ajib, betakror o'xshatishlar orqali shoir g'azalni o'zgacha jilolantirgan.

"Erkin Vohidov g'azallarida oshiqning dil rozlari, ma'shuqaning ta'rif-tavsifi mumtoz adabiyotdagi yanglig' har qancha mubolag'ador, serbo'yoq bo'lamsin, undagi timsollar bugunning odami ekani anglashilib turadi"<sup>21</sup>.

Keyingi mavzu obyektlaridan biri bu do'stdir.

"Do'stlarimga" g'azali shoir tomonidan do'stlari Anvar va Nasiba uchun bag'ishlangan bo'lsa, "Do'st bilan obod uying" g'azali do'stlik shartlarini ibratli hikmat tarzida aks ettirgan.

Do'st bilan obod uying, gar bo'lsa u vayrona ham,

Do'st qadam qo'yimas esa, vayronadir koshona ham.

"Qalam", "Uzum", "Yana qalamga", "Barg", "Chashma", "Gullar bazmi", "Gulchehralar", "Ey kabutar", "Ko'zgu" kabi g'azallarida hayotiy-maishiy vositalardan foydalanib, shoir ularni tashxis san'ati orqali jonli obrazga aylantiradi.

<sup>20</sup> Tafakkur.net

<sup>21</sup> Erkin Vohidovning so'z qo'llash mahorati. Guliston, 2020.

Termular shabnamli yaproq – ostidan pinhon uzum,  
Lablaringga yetmoq istab tong sahar giryon uzum.

Vatan madhiga bag'ishlangan g'azallar ham alohida o'ringa ega. Birgina "O'zbekim" qasidasi orqali shoirning yurtiga bo'lgan cheksiz muhabbatini anglash mumkin. Bu qasida har bir qalbdan muqim o'rin egallagan bo'lib, o'ziga xos vatanni tarannum etguvchi gimnga ham aylangan.

Erkin Vohidovga xos jihatlardan yana biri bu hazil-mutoyiba edi. Mahoratli shoir g'azallarda ham mutoyibani aks ettira olgani bilan kishini lol qoldiradi. "lola sayli" g'azali, Navoiyning "O'n sakkiz ming olam oshubi boshindadir" deb boshlanuvchi g'azaliga o'xshatma sifatida yozilgan "Boshindadir" g'azalini o'qiganingizda beixtiyor yuzingizga tabassum yuguradi.

Umuman olganda, Erkin Vohidov nazmi chin ma'nodagi adabiyotimiz xazinasiga qo'shilgan gavharlar shodasidir. Undagi har bir inju o'ziga xos qiymatga ega. Biz bu gavharlarni tadqiq etishda, tahlil davom etaveramiz, chunki shoir asarlarida ma'nolar maxzanini kuzatish mumkin. Navoiy asarlari besh asrdan buyon o'rganiladi, qayta-qayta tadqiq etiladi, sababi shoh asarlar hech qachon o'lmaydi. Aksincha, tadqiqot jarayonida yangi qirralarini namoyon etadi. Erkin Vohidov ijodi ham mana keng ko'lamda tadqiq qilinmoqda. Bu, albatta, shoir nomiga bo'lgan yuksak hurmat, qiziqish va e'tibor namunasidir!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nurmonov A. So 'z mulkiga sayr. Ziyo.uz.com. 2015.
2. Vohidov E. Yoshlik devoni. Toshkent. G 'afur G 'ulom. 1969. Keying misollar ham shu kitobdan olindi.
3. Tafakkur.net
4. Erkin Vohidovning so 'z qo 'llash mahorati. Guliston, 2020.